

## SOME COMMENTS ON FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Ismatullayeva Madinabonu,**

Andijan State University, 3rd year student of Preschool Education

**Abstract:** In accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-5117 of May 19, 2021 on measures to bring the promotion of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level [1]. The Ministry of Preschool Education, in cooperation with UNICEF, has been tasked with developing and implementing a manual on teaching foreign languages to children under 7 years of age. The urgent task facing the pre-school education system of the Republic of Uzbekistan is to bring up and bring up people who are fully developed, talented, loyal to their homeland and people.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O'RGATISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

**Ismatullayeva Madinabonu,**

Andijon davlat universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq [1]. Maktabgacha ta'lim vazirligiga YUNICEF bilan hamkorlikda 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga chet tillarini o'qitish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqib, joriy etish vazifasi qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifa har tomonlama kamol topgan, qobilyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iborat.

Bugungi kun tarbiyachisi ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar, mashg'ulotlarda zamonaviy interfaol usullardan, axborat texnologiyalaridan faoliyati davomida o'rinli foydalanib multimedia darslarini qo'llash orqali sifat va samaradorlikka erishishi mumkin [2.151].

Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda chet tilini oson o'zlashtirishi bo'yicha yakdil fikrlar bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushinib emas, balki mexanik tarzda o'rganadi, shuning uchun chet tilini qo'llanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsa-da, bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilishini inobatga olgan holda, bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida chaqoloq tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davr bola rivojlanishining eng muhim davri ekanligi isbotlangan. Shuningdek, uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miyya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha, bolaning birinchi yilidayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday holatda ham bolaning psixologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unutmasligimiz lozim. Har qanday vaziyatlar va faoliyatlar zamirida chet tilini o'rgatish jarayonida materialni yod olish tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda chet tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Chet tilidagi muloqot vaqtini ona tilidagi muloqot vaqtiga yaqinlashtirish kerak. Albatta, murabbiyning harakati, imo-ishorasi va chet tilida ravon nutqi va gapirish ohanggi bilan bolani o'ziga jalb qila olish til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy

muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Shuningdek, til o'rgatuvchi murabbiylarning "Playing with blocks or Legos" (bloklar yoki Lego vositalari bilan o'ynash), "Dressing" (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), "Sing a song"(qo'shiq kuylash) ta'limiy faoliyat turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o'rganish ko'nikmalarni maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so'z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashini kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Chet tillarni o'rganishning ilk poydevori aynan ushbu davrga to'g'ri keladi. Mazkur jarayonni amalga oshirish mutaxassis tarbiyachidan katta pedagogik va psixologik tayyorgarlik talab etadi. O'qituvchi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda o'z oldiga "bolajonlarga tushunarli ma'lumot berdimmi?", "Bolalarga mashg'ulot qiziqarli mi?" kabi savollarni qo'yib, uning yechimini qidirish zarur. Bolalik davrida insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng yaxshi vaqt hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari bolalarning ehtiyojlariga asoslanib fanni qo'llashlari kerak. Misol uchun, chet tiliga qiziqishini oshirishda yangi multimedia texnologiyalari yordamida bilish, eshitish va nutq malakalarini shakllantirib borish zarur. Bugungi kunda o'quv vositalari sifatida, Internet va multimedia texnologiyalari bolalar bog'chalarida samarali qo'llanilib, kichik yoshdagi bolalarning ta'limiga yangi ko'nikmalarni olib kirmoqda. Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limning asosiy modelidir, bolalikdan boshlab sifatli ta'lim asosida bolalarni tarbiyalash va chet tillarini o'rgatish zarur. Bolajonlarga yoshlik chog'idan boshlab chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish borish kerak. Ularni xato bo'lsada gapirishga o'rgatish va mashg'ulotlarni sodda, qiziqali va ko'rgazmali rolli, noan'anaviy tarzda tashkil etilsagina bolalar oldidagi to'siqlarni yengib, qo'rqmasdan gapira boshlaydi. Agar biz chet tilini dars emas, aksincha, qiziqarli o'yin shaklida olib borsak, kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiramiz. Bundan tashqari bolalarning faollik darajasi yanada o'sib boradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga ham yordam beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Mashg'ulot jarayonida o'ynaladigan bir nechta o'yin turlari mavjud bo'lib ulardan biri "Xaltachada nima bor?" o'yini. Mashg'ulot xonasidagi kichik buyumlarni xaltachaga solib bolajonlarga birma-bir olishiga ruxsat beriladi va ularning nomlarini chet tilida aytib berishadi. Masalan, "It is a pencil (an apple, a flower) va tarbiyachi bolalarni baholashga kirishadi, shuningdek, eng ko'p topgan tarbiyalanuvchi taqdirlanadi. Bu bilan bolalarda chet tiliga bo'lgan qiziqishini ortadi, bundan tashqari buyumlarni ushlab jarayonida sensor matorikalari rivojlanadi. Shuningdek, bolalar ertak qahramonlarini o'z tasavvurida jonlantiradilar, obrazga kirishadilar hamda asosiy so'z va so'z iboralarni qo'llashni o'rganadilar. Bu albatta chet tilida so'zlarni tinglab tushunish va yod olingan so'zlardan jumlar tuzilish orqali gapirish mahoratini ham rivojlanishining xizmat qiladi.

Chet tillarini o'qitish bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor berilishi muhim:

1. Mashg'ulotlar bolalarni toliqtirmasligi zarur.
2. Qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari qiziqarli olib borilishi kerak.
3. Ma'lumotni bolalarga o'yin tarzida o'rgatish muhimdir.
4. O'quv materiallarni sodda va ko'rgazmali bo'lishi zarur.
5. Vaziyatga qarab, bolaning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, axborat texnologiyalaridan foydalanish.
6. Mashg'ulotga o'tkazish vaqtini hisobga olish muhimdir [3.226] .

Demak, bolaning aynan ilk yoshida o'rgangan bilimi ajdodlarimiz aytganidek "toshga bitilishi" bejiz emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib chet tillarini ham bolalarga erta yoshida o'rgatishdagi til ko'nikmalarni va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa, ushbu bilim, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola chet tilini o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar

nafaqat bilim, ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishga, balki shu bilan birga u bolani jismona sog'lom rivojlanishining ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga katta ko'mak beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq.
2. Jiddiqov J. Boshlang'ich ta'lim muammolar va yechimlar (Respublika ilmiy va amaliy anjumani materiallari) III chiqish Andijon-2014, 151-bet.
3. Mahmudov K. Boshlang'ich ta'lim muammolar va yechimlar (Respublika ilmiy va amaliy anjumani materiallari) IV chiqish Andijon-2015, 226-bet.